

FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

«UZKASS - 185» NKM

Versiya (UZ-2.0)

MUNDARIJA

KIRISH	4
I. NKM TAVSIFI	4
1.1. NKM qo'llanilishi.....	4
1.2. Nomlanishi va tuzilishi	5
1.3. Foydalanish sharoitlari.....	8
1.4. Akkumulyator batareyasi.....	8
1.5. Chop etish moslamasi.....	8
1.6. Ma'lumotlarni kiritish va displeyga chiqarish.....	8
1.7. Ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash.....	9
1.8. Tarasi va qadoqlanishi.....	9
1.9. NKM markirovkasi va plombalanishi.....	9
II. FOYDALANISH	9
2.1. Xavfsizlik choralari.....	9
2.2. NKMni o'rnatish va joylashtirish.....	9
2.3. Ishga tayyorlash.....	10
2.4. O'quv va onlayn holatlar.....	10
2.5. Xatolik va nosozliklar.....	11
III. NKMDA ISHLASH	11
3.1. NKM ni yoqish.....	11
IV. NKM ISH REJIMLARI	12
4.1 Umumiy tushunchalar.....	12
4.2. Dasturiy parollar yordamida rejimlarga kirishni tasdiqlash.....	12
4.3. Dasturiy parollar bilan ishlash.....	13
V. «DASTURLASH» REJIMI	14
5.1. «DASTURLASH» rejimi tavsifi.....	14
5.2. Chek boshi va oxirini dasturlash	14
5.3. Tovar(xizmat)larni dasturlash	15
5.4. Opsiylarni dasturlash	18
5.5. Parollarni dasturlash	19
5.6. Bo'limlarni dasturlash	20
5.7. Sana va vaqtni dasturlash	21
5.8. Zavod raqamini dasturlash	22
5.9. Soliq stavkalarini dasturlash	23
5.10. Tilni tanlash	24
VI. «OPERATOR» REJIMI	25
6.1 “OPERATOR” rejimi tavsifi.....	25
6.2. Tovar(xizmat) kodini raqamli klaviatura orqali kiritgan holda sotuvni rasmiylashtirish	25
6.3. Shtrix- kod skaneridan foydalanib savdo(xizmat)ni rasmiylashtirish	27
6.4. Tovar(xizmat) sonini kiritish orqali sotuvni rasmiylashtirish	27
6.5. Qaytimni hisoblash	28
6.6. Chegirma,,,,,,,,,,,,,,,,,,,,,	28
6.7. Soliqlarni qo'llagan holda sotuvni rasmiylashtirish	29
6.8. Chek yopilgunga qadar sotuvni bekor qilish	29
6.9. Tovarni qaytarib olish	29

6.10. To'lov karta mablag'i bilan to'laganda chekni yopish.....	30
6.11 Aralash usulda to'laganda chekni yopish	30
VII. «X HISOBOT» REJIMI.....	30
VIII. «Z HISOBOT» REJIMI.....	31
IX. «SERVIS» REJIMI.....	31
9.1. Avtosinov.....	31
9.2. FM ni faollashtirish	31
X. «MASOFALI ALOQA OPERATORI» ..	31
10.1 WI- FI	31
10.2 GPRS	32
10,3 Elektron pochta qutisi	32
ILOVA 1: Kodlar jadvali.....	33
ILOVA 2: Xatoliklar va ularning kodi.....	36
ILOVA 3: Chek namunalari	37
ILOVA 4: Hisobot namunalari	44

KIRISH

Mazkur foydalanish bo'yicha yo'riqnomada (bundan keyin - yo'riqnoma) «UZKASS-185» onlayn nazorat-kassa mashinasi(bundan keyin - NKM) to'g'risida, uning imkoniyatlarini to'liq ishga solish, undan to'g'ri foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

Mashinani o'rganganda, undan foydalanganda va texnik xizmat ko'rsatganda, shu bilan birga pasport ma'lumotlaridan ham foydalanish kerak.

I. NKM TAVSIFI

1.1. NKM qo'llanilishi


NKM kassa jarayonlarini qayd etish, nazorat qilish va pul tushumlarining hisobini yuritish hamda fiskal ma'lumotlar operatori serveriga fiskal ma'lumotlarni onlayn rejimida uzatish uchun xizmat qiladi. NKM savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanishi mumkin va quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- tovar (xizmat) nomi bo'yicha xaridni rasmiylashtirish;
- tovar (xizmat) nomini GS1 katalogi orqali rasmiylashtirish
- 2 turdagi to'lovlarni qabul qilish;
- pul mablag'larining hisobini yuritish;
- oraliq va yakuniy natijalarni hisoblash;
- qaytim miqdorini hisoblash;
- pul va amaliyot registrlar ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni avtomatik chop etish;
- pul va amaliyot registrlar ko'rsatkichlarini nol qilish va ularni avtomatik chop etish;
- narxni tovar(xizmat) miqdoriga ko'paytirish;
- pul miqdori haqida ma'lumotni chop etishdan oldin operator xatosini to'g'rilash;
- chegirmani hisoblash;
- chek chiqargunga qadar to'lovni bekor qilish;
- tovarni qaytarib olish;
- hisobot hujjatlarini chop etish.

1.2. NKM nomlanishi va tuzilishi

Nomlanishi : «**UZKASS 185**» nazorat-kassa mashinasi


Mashinaning umumiy ko'rinishi



Rasm 1.

- | | |
|-------------------------------------|---|
| 1. Qobiq; | 6. Qirqish taroqchasi; |
| 2. SD karta uyasi; | 7. Chek lentasi; |
| 3. NKM ni yoqish/o'chirish tugmasi; | 8. Bosma qurilmasi va qog'oz bo'linmasi qopqog'i. |
| 4. Klaviatura; | |
| 5. Displey; | |


Mashina qobig'ining orqa devoridagi ulanishlari



Rasm 2.

- | | |
|----------------------------------|-----------|
| 1. Zaryad qurilmasi ulanishi. | 4. RS 232 |
| 2. Pul qutisi uchun ulanish joyi | 5. USB3 |
| 3. USB1, USB2 | |


Mashinaning ostki qismi ko'rinishi





Rasm 3.

- | | |
|-----------------------------------|---|
| 1. Qobiqning mahkamlash vintlari; | 3. GPRS antenasi; |
| 2. Yorliq belgisi ; | 4. Akkumulyator batareyasi bo'linmasi qopqog'i. |

Klaviatura tuzilishi



Rasm 4.

 ,  , ,  , 

Raqamli клавиатура



NKM ni yoqish/o'chirish



Qaytimni qayd etish



Kodlar jadvalini chop etish



Rejimlar yoki tarkibiy bo'limlarini tanlash



Rejimlar yoki tarkibiy bo'limlarini tanlash



Rejimlar yoki tarkibiy bo'limlarga kirish
Parametrni tasdiqlash



Parametrlari tanlash



Parametrlarni tanlash



Tovarni qaytarib olish. Chekni bekor qilish



Pul qutisini ishga tushirish



Qog'ozni tortish



Yuqori rejimga o'tish



Tovar(xizmat) kodini tasdiqlash



Xato kiritilgan ma'lumotni olib tashlash.
Displeyni tozalash



Rejimlarni tanlash



Jarayonni yakunlash

1.3. Foydalanish sharoitlari

NKM havo harorati - 10 °C dan +40 °C gacha, havo nisbiy namligi 80% gacha, atmosfera bosimi 84÷107 kPa sharoitlarda ishlatilishi mumkin.

1.4. Akkumulyator batareyasi

NKM elektr ta'minoti uning ichiga o'rnatilgan o'zgarmas tokli akkumulyator batareyasi (bundan keyin - AKB) orqali amalga oshiriladi. Uning elektr kuchlanishi 7,4V ga, elektr tok sig'imi 3,0 Ah ga teng.

AKB tashqi zaryad moslamasi (bundan keyin - ZM) orqali zaryadlanadi. ZM elektr kuchlanishi 220(-15% +10 %)V va chastotasi (50 ± 1) Hz bo'lgan o'zgaruvchan tok tarmog'iga rozetka orqali ulanadi.

DIQQAT!

- AKB ni ulaganda qutblarga rioya qiling, aks holda NKM ishdan chiqishi mumkin.
- AKB ni faqat xuddi shunday yoki o'xshash turdagi AKBga almashtiring.
- NKMni saqlaganda (NKM dan uzoq muddatda foydalanilmaganda), AKB ishdan chiqishining oldini olish uchun uni kamida oyida 1 marta zaryadlash kerak.
- AKBni to'liq zaryadlash +15°C dan +25°C gacha havo haroratida amalga oshirilishi lozim.
- AKB to'liq zaryad olganidan so'ng AKBni ZM dan ajratish kerak, aks holda AKB yaroqsiz holga keladi.

1.5. Chop etish moslamasi

NKM chek tasmasi oson o'rnatiladigan chop etuvchi moslama bilan jihozlangan bo'lib, tarkibida «ALPS ELECTRIC CO.,LTD.» (Yaponiya) termochop etuvchi qism joylashgan va cheklar issiqlikga sezuvchan, kengligi $57 \pm 0,25$ mm («KoehlerInstrumentCompany» firmasining KT55F18 turdagi yoki boshqa firmalarning o'xshash qog'ozidan) bo'lgan qog'ozda chop etiladi.

1.6. Ma'lumotlarni kiritish va displeyga chiqarish

Ma'lumotlar NKM klaviaturasidan kiritiladi. NKM klaviaturasi tashqi ko'rinishi Rasm 4. da ko'rsatilgan. Kiritilgan ma'lumotlar, hisoblash natijalari, ish rejimi va boshqalar quyidagilarda aks ettiriladi:

- Shakllantirilayotgan hujjatlarda;
- NKM operator displeyida;
- Qo'shimcha displey NKMga ulangan bo'lsa, xaridor displeyida.

1.7. Ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash

NKMni ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini pasportda keltirilgan talablarga muvofiq NKMga xizmat ko'rsatish huquqini beruvchi guvohnomaga ega mutaxassislar amalga oshirishlari shart.

1.8. Tarasi va qadoqlanishi

NKM ishlab chiqaruvchi korxona hujjatlariga muvofiq o'raladi. NKM ni xarid qilganda, o'ramda shikast va nuqsonlar mavjud emasligi tekshirilishi lozim.

1.9. NKM markirovkasi va plombalanishi

NKM qobig'I mashinaga ishlab chiqaruvchi korxona sharoitlarida plombalash imkoniyatini beradi, foydalanish davrida plomba NKMga texnik xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi tashkilot va davlat soliq xizmati vakili tomonidan o'rnatiladi.

II. FOYDALANISH

2.1. Xavfsizlik choralari

NKMda ishlashga, unga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomadan o'tgan xodimlar qo'yilishi kerak.

Nosozliklarni izlash va ularni bartaraf etish vaqtida barcha jihozlar yerga ishonchli ulangan bo'lishi kerak. Qismlarga ajratish - yig'ish ishlari, qismlar almashtirilishi, ilashmalarni payvandlash faqat o'chirilgan ZM va o'chirilgan AKBda bajarilishi kerak.

AKB zaryad olishi tugaganidan so'ng ZMni tarmoq rozetkasidan o'chirish kerak. Rozetka operator uchun qulay joyda joylashgan bo'lishi kerak.

2.2. NKMni joylashtirish va o'rnatish

NKMni o'ramdan chiqargandan so'ng quyidagilar bajarilishi shart:

- NKMni tashish jarayonida paydo bo'lgan nuqson va shikastlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilish;
- NKM pasportiga muvofiq komplekt qismlari barchasi mavjudligini tekshirish;
- NKM zavod raqami NKM pasportida "Qabul qilish to'g'risida guvohnoma" bo'limidagi raqamga mos kelishini tekshirish;
- Ishlab chiqaruvchi korxona plombalari mavjudligini va ular butligini tekshirish;
- NKM yuza qismidan changni artib tashlash.

NKMni umumiy va aralash ko'rinishdagi yoritish sharoitlariga, shiningdek yoritish darajasi 400÷500 Lx bo'lgan joyga o'rnatish kerak. NKM tekis yuzaga mahkam o'rnatilishi kerak hamda turli tebranish va zarbalar ta'siri ostida bo'lmasligi kerak. NKM joylashgan joyiga to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushmasligi, issiqlik manbalari, namlik va changdan himoyalangan bo'lishi kerak.

Agar NKM manfiy haroratda saqlangan bo'lsa, so'ng musbat haroratli xonaga olib kirilsa, uni ishlatish yoki AKBni zaryadlashdan oldin uni +15°C dan +25°C gacha haroratda kamida 4 soat davomida ushlab turish kerak.

2.3. Ishga tayyorlash.

NKMda ishlashni boshlash uchun quyidagilarni bajarish kerak:

- ZMni ulash;
- AKBni to'liq zaryadlash;
- ZMni o'chirish;
- NKMni yoqish;
- Chop etuvchi moslamada chek tasmasi mavjudligini tekshirish.

Agar yangi rulonni o'rnatish zarur bo'lsa, buning uchun:

- Printer bo'linmasi qopqog'ini ochish;
- Issiqlikka sezuvchan qismini pastga yo'naltirgan holda qog'oz rulonini qog'oz bo'linmasiga o'rnatish;
- Chop etuvchi moslamaning qopqog'ini yopib, tortuvchi valga qog'ozni bosib qolish imkoniyatini yaratish.

DIQQAT!

- Ishga tayyorlash NKM ni ishga tushirish ishlari qatoriga kiradi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot mutaxassislari tomonidan bajarilishi kerak.

2.4. O'quv va onlayn holatlar

NKM o'quv va onlayn holatida ishlashi mumkin. O'quv holati operatorlarga NKMga ishlashni o'rgatish uchun mo'ljallanadi. Onlayn holatga o'tish NKMga fiskal modul o'rnatilgandan so'ng amalga oshiriladi. NKM onlayn holatiga o'tkazilganidan so'ng fiskal ma'lumotlar fiskal ma'lumotlar operatori serveriga onlayn tarzda yuboriladi. NKMning onlayn rejimida ishlashining ajratib turuvchi belgisi har bir fiskal hujjatda fiskal belgi, fiskal modul seriya raqami va STIR aniq qiymati chop etilishi hisoblanadi.

Onlayn holatiga o'tkazilganidan so'ng o'quv rejimiga qaytish mumkin emas.

NKMda maxsus o'quv kursidan o'tgan va ushbu foydalanish yo'riqnomasini o'rganib chiqqan operatorlar ishlashi kerak.


2.5. Xatolik va nosozliklar.

Ish vaqtida NKM displeyida turli xatoliklar kodi va xabarlar chiqadi. Agar bunday xabarlar ma'nolari tegishli mavzuga bag'ishlangan bo'limlarda keltirilmagan bo'lsa, mazkur yo'riqnomaning 2 - ilovasida keltirilgan **“Displeyda aks etadigan xatoliklar nomi”** bo'limiga qarash kerak.


Mazkur yo'riqnomada bartaraf etilishi ta'riflanmagan nosozlik vujudga kelsa, NKMni o'chirib, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga murojaat qilish kerak.

III. NKMDA ISHLASH.

3.1. NKMni yoqish.

NKMni yoqish uchun NKMning klaviaturasidagi  tugmachasi bosiladi. Shundan so'ng NKM avtomatik ravishda sinovlardan o'tkaziladi.

NKM biror-bir qismi yoki bo'g'inining nosozligi aniqlanmasa, NKM displeyi quyidagi ko'rinishga o'tadi:



DIQQAT!

- Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan ishga tushirish-sozlash ishlari va NKM ni foydalanishga topshirish ishlari bajarilmasdan turib NKMni yoqish man etiladi.
- Agar 1 daqiqa davomida NKM da hech qanday tugmacha bosilmagan bo'lsa, u avtomatik ravishda kutish rejimiga o'tadi (displey chirog'i o'chadi). NKMni kutish rejimidan chiqarish uchun ixtiyoriy tugmachani bosing.
- Agar NKM da 30 daqiqa davomida hech qanday tugmacha bosilmagan bo'lsa, u avtomatik ravishda o'chadi (displey to'liq o'chadi).

4.1 Umumiy tushunchalar

NKMda yettita ish rejimi mavjud:

1. «OPERATOR»;
2. «X HISOBOT»;
3. «Z HISOBOT»;
4. «DASTURLASH»;
5. «SOLIQ INSPEKTORI»;
6. «SERVIS»;
7. «MASOFALI ALOQA OPERATORI».

NKM ish rejimlari menyusida ishlash uchun «**HOLAT**», «**^**», «**✓**» , «**DASTUR**», «**JAMI**», «**YAKUN**» tugmachalaridan foydalaniladi.

«**HOLAT**», «**^**», «**✓**» , yoki «**JAMI**» tugmachalarini doira bo'yicha harakatlantirib, NKMning kerakli ish rejimi tanlanadi. Shundan so'ng kerakli holatga kirish uchun «**DASTUR**» yoki «**YAKUN**» tugmachalari, «**SOLIQ INSPEKTORI**» rejimiga kirish uchun esa «**KOD**» tugmachasi bosiladi.

- NKM quyi rejim menyusidan yuqori rejim menyusiga o'tish uchun «**HOLAT**» tugmachasi bosiladi.

4.2. Dasturiy parollar yordamida rejimga kirishni tasdiqlash

- OPERATOR rejimida 16 ta operatorning har biri dasturiy parollar bilan himoyalangan. Ular **operator parollari** deb ataladi.
- X HISOBOT rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u **katta administrator paroli** deb ataladi.
- Z HISOBOT rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u **administrator paroli** deb ataladi.
- DASTURLASH rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u **tarmoq administrator paroli** deb ataladi.
- SERVIS rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u **texnik xodim paroli** deb ataladi.
- SOLIQ INSPEKTORI rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u **soliq inspektori paroli** deb ataladi.
- MASOFALI ALOQA OPERATORI rejimi 1 ta dasturiy parol bilan himoyalangan bo'lib, u “**masofali aloqa paroli**” deb ataladi.

DIQQAT!

- NKM rejimlariga dasturiy parollar o'rnatilganda rejimlarga kirish paytida NKM tegishli parol kiritilishini talab qiladi.
- “SOLIQ INSPEKTORI” rejimiga kirishda dasturiy parol yordamida himoya qilish har doim faol bo'ladi va NKM rejimga kirish tasdiqlanishini talab qiladi (dasturiy parolning dastlabki qiymati “000000”ga teng).
- Barcha rejimlarga kirishda 3 marta parol noto'g'ri kiritilsa, rejim blokirovka qilinadi.

- NKM displeyida parolni kiritish oynasi:



- tanlangan rejim uchun dasturlangan dasturiy parol kiritiladi.

V. «DASTURLASH» REJIMI

5.1. «DASTURLASH» rejimi tavsifi

Mazkur rejim NKM egasining talablariga muvofiq konfiguratsiyasini dasturlash uchun mo'ljallangan.

«DASTURLASH» rejimi quyidagilardan tashkil topgan:


- Chek boshi va oxirini dasturlash;
- Tovarl(xizmat)larni dasturlash;
- Opsiyalarni dasturlash;
- Parollarni dasturlash;
- Bo'limlarni dasturlash;
- Sana va vaqtni dasturlash;
- Zavod raqamini dasturlash;
- Soliq stavkalarini dasturlash;
- Tilni tanlash;

5.2. Chek boshi va oxirini dasturlash

Mazkur jarayon chek boshini (6 ta satr va har bir satrda 24 tagacha simvol) va chek oxirini (6 ta satr va har bir satrda 24 tagacha simvol) dasturlashga xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displayda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang;
2. «**DASTUR**»ni bosib. Parolni kiritib. «**JAMI**» orqali displayda «**Chek boshini dasturlash**» yoki «**Chek oxirini dasturlash**» menyusini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosib. Displayda «**Satr 1**» menyusini ko'rinadi.
4. «**DASTUR**»ni bosib. Displayda «**O'rta shrift**» ko'rinadi
5. «**JAMI**» orqali shrift o'lchamini tanlang.
6. «**DASTUR**»ni bosib. Displayda quyidagi menyu ko'rinadi:



7. Kodlar jadvalidan (Ilova 1) foydalanib, kerakli belgini kiritib. Har bir belgidan so'ng «**JAMI**» tugmachasi bosiladi.
8. Satr kiritilgandan so'ng uni xotiraga saqlash uchun «**DASTUR**»ni bosib.
9. Chekda dasturlangan satr chop etiladi.

- | |
|--|
| <p style="text-align: center;">DIQQAT!</p> <p>5.</p> <ul style="list-style-type: none">• Satr tartib raqami tahrir qilinmaydi.• Shrift o'lchami 3 xil ko'rinishga ega.• Agar satr dasturlanmagan bo'lsa, hujjatda ushbu satr bosmaga <p>6. chiqarilmaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">• Yozuvlarni kiritish uzunligi 24 tagacha satr belgisidan iborat.• Yozuvni tahrir qilish uchun «T» tugmasini bosish orqali satrning o'ng <p>8. tomonidan boshlab har bir belgi birin-ketin o'chirilib boriladi .</p> <ul style="list-style-type: none">• Satrdagi yozilgan yozuvlarni xotiraga saqlamasdan dasturlash rejimidan chiqish uchun «HOLAT» tugmachasini bosish kerak. |
|--|

5.3. Tovar(xizmat)larni dasturlash

Mazkur jarayon tovar(xizmat) kodlarini dasturlashga xizmat qiladi va sotuvlarning differensiyalashgan hisobotini olib borish uchun xizmat qiladi.

ESLATMA



- Jami 160000 gacha tovar(xizmat)larning kodlari dasturlanishi mumkin.
- Har bir tovar(xizmat) nomi uchun chekda 48 tagacha belgi mo'ljallangan.
- Tovar(xizmat) kodi mavjudligining asosiy alomati bazada uning narxi va/ yoki nomi bo'lisi hisoblanadi.
- Bazadagi tovar(xizmat) kodlari bilan ishlashda ikki xil ko'rinish ko'zda tutiladi:
 - Erkin narxga ega bo'lgan tovar(xizmat)ning narxi chekni rasmiylashtirayotgan paytda so'raladi;
 - Qat'iy belgilangan, qo'shimcha ma'lumotlar kiritish talab etilmaydi.

DIQQAT!

- Tovar(xizmat) kodlari orqali ishlash quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:
 - Tovar(xizmat) nomi, narxi, bo'limi, shtrix-kod dasturlanadi. Tovar(xizmat) o'zining ichki kodi yoki shtrix-kodi bilan skaner yordamida chaqiriladi. Rasmiylashtirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi;
 - Tovar(xizmat) nomi va bo'limi dasturlanadi, shtrix-kod dasturlanadi. Tovar(xizmat) ichki kodi orqali yoki shtrix-kodi bilan skaner yordamida chaqiriladi . Qolgan jarayon oddiy usul bilan davom ettiriladi;
 - Tovar(xizmat) nomi va bo'limi dasturlanadi. Tovar(xizmat) ichki kodi orqali chaqiriladi . Qolgan jarayon oddiy usul bilan davom ettiriladi;
 - Tovar(xizmat) kodini yopish/ochish uchun dasturlash jarayonida RUXSAT ON/OFF parametrlarini tanlash ko'zda tutilgan.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosning. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displeyda «**Tovarlarni dasturlash**» yoki «**Xizmatlarni dasturlash**» oynasini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**KIRITISH**» oynasi ko'rinadi.
4. «**DASTUR**» ni bosning. Displayda «**SKANER**» oynasi ko'rinadi.
5. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:



6. Kodlar jadvalidan foydalanib, kerakli belgini kiriting. Har bir belgidan so'ng «**JAMI**» tugmachasi bosiladi.
7. Satr kiritilgandan so'ng uni xotiraga saqlash uchun «**DASTUR**»ni bosning.
8. Displeyda «**Narxi**» oynasi ko'rinadi.
9. Zarur bo'lsa narxni kiriting va «**DASTUR**» ni bosning.
10. Displeyda «**1 Bo'lim**» oynasi ko'rinadi.
11. Zarur bo'lsa «**JAMI**» bilan kerakli bo'limni tanlang va «**DASTUR**» ni bosning.
12. Displeyda «**DONA**» ko'rinadi.
13. Zarur bo'lsa «**JAMI**» bilan boshqa o'lchov birligini tanlang va «**DASTUR**» ni bosning.

14. Displayda “**RUXSAT ON**” ko’rinadi. Zarur bo’lsa “**RUXSAT OFF**” ni tanlang va «**DASTUR**» ni bosing.
15. Displayda keyingi tovar(xizmat) kodini dasturlash uchun «**KIRITISH**» oynasi ko’rinadi.

Tovar kodini skaner yordamida bazaga kiritish

Buning uchun skaner NKM ning kerakli ulanish qismiga ulanadi.
Yuqoridagi tartibning 3- bandigacha amallar bajariladi.

1. «**DASTUR**»ni bosing. Displayning yuqorigi qismida « **SKANER** » so’zi ko’rinadi.
2. Skaner moslamasini tovarda o’rnatilgan shtrix-kod belgisiga yo’naltiring va kerakli tugmasini bosing.
3. Skaner tovushli signal chiqarib, displayda shtrix-kod raqamini akc ettiradi.
4. «**DASTUR**»ni bosing va 5.3. dagi tartibning 6- bandidan boshlab amallarni bajaring.

Tovar(xizmat) kodi ma’lumotlarini tahrirlash

Buning uchun 5.3. dagi tartibning 3- bandigacha amallar bajariladi.

1. «**JAMI**» orqali «**KO’RISH**» oynasini toping.
2. «**DASTUR**»ni bosing. Displayda quyidagi oyna ko’rinadi:



3. « **^** », « **✓** » yoki «**JAMI** » tugmachalari orqali kerakli tovar(xizmat) kodini toping.
4. «**DASTUR**»ni bosing. 5.3. dagi tartiblarning 6 – bandidan boshlab amallarni bajaring.

ESLATMA

Tovar(xizmat)lar ro’yxatini chek lentasiga bosmadan chiqarish zarur bo’lsa, “**Tovarlarni dasturlash**” yoki “**Xizmatlarni dasturlash**” menyusiga kirgan holatda « **00** » va « **.** » tugmachalari ketma-ket bosiladi.

5.4. Opsiyalarni dasturlash

Mazkur jarayon chek va hujjatlarda chop etiladigan ma'lumotlarning o'qilish darajasini qulay holga keltirish, kassa jarayonlarini faoliyat turiga ko'ra moslashtirish va sarf bo'ladigan qog'ozning tejamkorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

№	Opsiya nomi	Opsiya qiymati oralig'i	Opsiya mazmuni	Dastlabki o'rnatilgan qiymati
1	Shrift ravshanligi	1 - 9	Chop etiladigan yozuvning ravshanligi	5
2	Shrift o'lchami	Kichik O'rta Katta	Chop etiladigan yozuvning o'lchami	O'rta
3	Ovoz	Ha Yo'q	Tugmachalarni bosganda tovushli signal chiqishi	Ha
4	Qog'ozni moslash	1 - 5	Chek oxirgi qismini qirqish moslamasiga moslashtirish	0
5	Avto chop etish	Ha Yo'q	Tovart(xizmat) kodini bosish orqali chekni avtomatik chop etish	Yo'q
6	Tovar kodini tanlash	Ha Yo'q	Savdo(xizmat ko'rsatish) da kod bilan ishlashning usullarini tanlaydi	Ha
7	Sotish usullari	1 - 2	Tovar(xizmat)larni sotishda oddiy usulni tanlash	1

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosing. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displeyda «**Opsiyalarni dasturlash**» oynasini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosing. Displeyda «**Shrift ravshanligi**» oynasi ko'rinadi.
4. «**DASTUR**» ni bosing. Displeyda opsiya qiymati raqami ko'rinadi.
5. « **/** », « **✓** » yoki «**JAMI** » orqali kerakli qiymatni tanlang.
6. «**DASTUR**»ni bosing.

7. «**JAMI**» orqali navbatdagi opsiyani tanlang.
8. Opsiya qolgan qiymatlarini kiritish tartibi yuqoridagidek amalga oshiriladi.


5.5. Parollarni dasturlash

Mazkur jarayon ish rejimlariga kirish uchun parollarni o'rnatish va zaruriyat paydo bo'lsa ularni o'zgartirish hamda bekor qilish uchun xizmat qiladi.

№	Parol nomi	Parol raqamining razryadligi	Dastlabki o'rnatilgan parol
1	Operator (1 dan 16 gacha)	6	100000
2	X hisobot	6	200000
3	Z hisobot	6	300000
4	Dasturlash	6	400000
5	Servis	6	500000
6	Masofali aloqa operatori	6	600000

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosing. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displeyda «**Parollarni dasturlash**» oynasini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosing. Displeyda «**X HISOBOT**» oynasi ko'rinadi.
4. «**JAMI**» orqali kerakli ish rejimini tanlang.
5. «**DASTUR**»ni bosing. Displeyda quyidagi ko'rinishdagi oyna ko'rinadi:



6. Raqamli tugmalardan foydalanib, dasturlanadigan parolni tering.
7. «**DASTUR**»ni bosing. Displeyda parol o'rnatilgan ish rejimi oynasi ko'rinadi.

O'rnatilgan parolni tahrirlash

Buning uchun yuqoridagi tartibning 4 – bandigacha amallarni bajaring.

5. «**DASTUR**»ni bosing. Displayda quyidagi ko'rinishdagi oyna ko'rinadi:



1. «**T**» tugmasini bir necha marta bosing. Displayda _ _ _ _ _ oynasi paydo bo'ladi.
2. Yangi parol kiritish yuqoridagi tartibdagidek olib boriladi.

ESLATMA

- Dasturlangan parollar ro'yxatini chek lentasiga bosmadan chiqarish zarur bo'lsa, "**Parollarni dasturlash**" menyusiga kirgan holatda «**00**» va «**.**» tugmachalari ketma-ket bosiladi.

Operatorlar ismi, sharifini dasturlash

Buning uchun yuqoridagi tartiblarga asosan **OPERATOR** larga parol o'rnatib «**DASTUR**» bosilganidan so'ng displayda "**OPERATORNING ISMI, SHARIFI**" oynasi paydo bo'ladi.

So'ngra kodlar jadvalidan foydalanib operatorlarning ismi, shariflari dasturlanadi va «**DASTUR**» bosiladi.


5.6.Bo'limlarni dasturlash

Mazkur jarayon orqali bo'limlar parametrlari dasturlanadi va zarur bo'lsa bo'limlar blokirovka qilinadi.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displayda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosing. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displayda «**Bo'limlarni dasturlash**» oynasini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosing. Displayda «**1 Bo'lim**» oynasi ko'rinadi.

4. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Tovar**» oynasi ko'rinadi.
5. «**JAMI**» orqali kerakli ish holatini tanlang.
6. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda quyidagi ko'rinishdagi oyna ko'rinadi:



7. Zarur bo'lsa kodlar jadvalidan foydalanib, kerakli simvollar kiritiladi. Har bir simvol kodi kiritilganda «**JAMI**» tugmasi bosilishi kerak.
 8. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Soliq A**» oynasi paydo bo'ladi.
 9. Zarur bo'lsa «**JAMI**» orqali kerakli soliq turini tanlang.
 10. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Aksiz**» oynasi paydo bo'ladi.
 11. Zarur bo'lsa, raqamli tugmalar orqali **Aksiz** narxini o'rnatish.
 12. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Cheklov**» oynasi paydo bo'ladi.
 13. Zarur bo'lsa, raqamli tugmalar orqali cheklovni o'rnatish.
- «**DASTUR**»ni bosning.

ESLATMA

1. Bo'lim nomining maksimal uzunligi 24 belgidan iborat.
2. Agarda bo'limga o'rnatilgan cheklovni bekor qilish zarur bo'lsa, displeyda «**Cheklov**» oynasi ko'ringanda «**T**» tugmasi bosilib, so'ngra «**DASTUR**»ni bosning.
3. Dasturlangan bo'limlar ro'yxatini chek lentasiga bosmadan chiqarish zarur bo'lsa, displeyda «**1 Bolim**» menyusi ko'ringan holda «**00**» va «**.**» tugmachalari ketma-ket bosiladi.


5.7. Sana va vaqtni dasturlash

Mazkur jarayon internet aloqasi bo'lmagan hollarda displeyda ko'rinadiagan va chek qog'ozida chop etiladigan joriy sana va vaqtni dasturlash hamda uni taymer xotirasiga yozib qo'yish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

3. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang.

4. «**DASTUR**»ni bosib, «**JAMI**» orqali displeyda «**Sana va vaqtni dasturlash**» oynasini toping;
5. «**DASTUR**»ni bosib. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:




6. Raqamli tugmachalar orqali birin- ketin kerakli tugmachalarni bosgan holda sana va vaqtni kiriting.
7. «**DASTUR**»ni bosib. Displey yuqori qismining chap tomonida joriy vaqt aks etadi.

5.8. Zavod raqamini dasturlash

NKM zavod raqami ishlab chiqaruvchi tomonidan bir marta o'rnatiladi. Uni ish davomida o'zgartirish mumkin emas.

Zavod raqamini ko'rish uchun quyidagilar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosib. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displeyda «**Zavod raqamini dasturlash**» oynasini toping;
3. «**DASTUR**»ni bosib. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:



5.9 Soliq stavkalarini dasturlash

Mazkur jarayon hujjatlarda qo'shimcha qiymat solig'ini(QQS) aniqlab olish maqsadida 5 xil soliq stavkasini(foiz ko'rinishida) dasturlash uchun mo'ljallangan. Ishlab chiqarish sharoitida NKMga quyidagi jadvalga asosan QQS ning dastlabki o'rnatilgan: ma'lumotlari

№	O'rnatilgan soliq turi	Soliq stavkasi (%)
1	Soliq A	0
2	Soliq B	0
3	Soliq C	0
4	Soliq D	0
5	Soliq E	0
6	Soliqsiz	0

QQS stavkasi bo'lim uchun o'rnatiladi va bu qiymat bo'limdagi barcha tovar(xizmat)larga tegishli bo'ladi.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosning. Parolni kiriting.
1. «**JAMI**» orqali displeyda «**Soliq stavkalarini dasturlash**» oynasini toping;
2. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Soliq A**» oynasi ko'rinadi.
3. «**JAMI**» orqali kerakli soliq turini tanlang.
4. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Stavka**» oynasi paydo bo'ladi.
5. Raqamli tugmachalar orqali soliq stavkasini kiriting.
6. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda «**Soliq A**» oynasi ko'rinadi.
7. Zarur bo'lsa, navbatdagi soliq stavkalarini yuqoridagi tartibga asosan dasturlanadi.

ESLATMA

- Dasturlangan QQS snavkalari ro'yxatini chek lentasiga bosmadan chiqarish zarur bo'lsa, displeyda «**Soliq A**» oynasi ko'ringan holda «**00**» va «**.**» tugmachalari ketma-ket bosiladi.
- QQS o'rnatilmagan tovat(xizmatlar) cheklarida **QQS SIZ** yozuvi paydo bo'ladi.

5.10. Tilni tanlash

Mazkur jarayon orqali NKM displeyida va chek qog'ozida aks etadigan ma'lumotlarning **o'zbek tili** yoki **rus tilida** chiqishi belgilanadi.

Buninhg uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displeyda «**DASTURLASH**» rejimini tanlang. «**YAKUN**» ni bosning. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali displeyda «**Tilni tanlash**» oynasini toping.
3. «**DASTUR**»ni bosning. Displeyda “**O'zbek tili**” yoki “**Rus tili**” so'zi ko'rinadi.
4. «**JAMI**» orqali kerakli tilni tanlang.
5. «**DASTUR**»ni bosning.

VI. OPERATOR» REJIMI

6.1 «OPERATOR» rejimi tavsifi

Mazkur rejim savdo(xizmat ko'rsatish)da kassa jarayonlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Quyidagi jadvalda uning tarkibidagi bajariladigan amallar mazmuni ko'rsatilgan:

Jarayon turlari	Jarayon nomi va tavsifi
Savdo(xizmat)ni rasmiylashtirish	• Tovar(xizmat)kodini raqamli klaviatura yoki shtrix kod skaneri orqali kiritgan holda sotuvni rasmiylashtirish; • Ikki va undan ortiq tovar(xizmat)kodini raqamli klaviatura yoki shtrix kod skaneri orqali kiritgan holda sotuvni rasmiylashtirish; • Tovar(xizmat) sonini uning narxiga ko'paytirgan holda raqamli klaviatura yoki shtrix kod skaneri orqali sotuvni rasmiylashtirish; • To'lovni naqd hamda naqdsiz rasmiylashtirish; • Naqd hamda naqdsiz summalar hisobini yuritish; • Sotuv narxiga chegirmalarni qo'shish; • Oraliq yakunni hisoblash; • Chekni yakunlash; • Qaytim summasini avtomatik hisoblash;
Cheklashlar	• Sotuvni chek yopilgunga qadar bekor qilish; • Tovar(xizmat)ni qaytarib olish;

6.2. Tovar(xizmat) kodini raqamli klaviatura orqali kiritgan holda sotuvni rasmiylashtirish


Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

1. Displayda «**OPERATOR**» rejimini tanlang.
2. «**YAKUN**»ni bosish. Displayda quyidagi oyna ko'rinadi




3. Parolni kiriting.

4. Displeyda quyidagi oyna paydo bo'ladi:




5. Tovar(xizmat) kodini tering.


6. «KOD» tugmasini bosing. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:




7. «YAKUN» tugmasini bosing. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:




8. Tovar(xizmat) narxini tering. «YAKUN» tugmasini bosing.
Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:



9. «YAKUN»ni bosing. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:



- 10.«YAKUN»ni bosing. Chek chop etiladi.



Ikki va undan ortiq tovar(xizmat) kodlarini kiritish orqali sotuvni rasmiylashtirish

Mazkur yo'riqnomaning 6.2 – mavzusidagi tartiblarning 8-bandigacha 1 – tovar(xizmat) uchun amallarni bajaring. Ikkinchi va undan keyingi tovar(xizmat) kodlari uchun yuqoridagi tartibning 8 - bandigacha bandlarini takrorlang. Chekni tugatish uchun 9-,10- bandlarni bajaring.

6.3. Shtrix- kod skaneridan foydalanib savdo(xizmat)ni rasmiylashtirish

ESLATMA

Skaner ulanganidan so'ng displeyning yuqori qismining chap tomonida **USB** belgisi ko'rinadi.

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

Mazkur yo'riqnomaning 6.2 – mavzusidagi tartiblarning 4- bandigacha amallar bajariladi. So'ngra:


1. Skaner tovar shtrix – kodiga yo'naltirilib, o'qib olinadi.
2. Displeyda tovarning nomi yoki narxi ko'rinadi.
3. «**YAKUN**» bosiladi.
4. Navbatdagi kassa jarayonlari 6.2. – mavzudagi tartiblarga ko'ra olib boriladi.

6.4. Tovar(xizmat) sonini kiritish orqali sotuvni rasmiylashtirish

Buning uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

Mazkur yo'riqnomaning 6.2 – mavzusidagi tartiblarning 7- bandigacha amallar bajariladi. So'ngra:

1. Tovar narxi teriladi va «**JAMI**» orqali tovar soni satriga o'tiladi.
2. Tovar miqdorini kiriting.
3. Displeyda quyidagi oyna ko'rinadi:



4. «**YAKUN**» bosiladi.
5. Qolgan amallar 6.2 – mavzudagi tartiblarning 9- bandidan davom ettiriladi.

6.5. Qaytimni hisoblash

Yuqoridagi amallarni bajarish davomida chekni yopishdan oldin xaridor tomonidan berilgan naqd pul miqdorini qabul qilib, avtomatik ravishda qaytimni hisoblash uchun quyidagi tartiblar bajariladi:

6.2 – mavzudagi tartiblarning 9 – bandigacha bo'lgan amallar bajarilganidan so'ng quyidagilar bajariladi:

1. «**TO'LOV**» bosiladi. Displayda quyidagi oyna ko'rinadi:



3. Xaridordan olingan naqd pul kiritiladi.

4. «**YAKUN**» bosiladi. Chek chop etiladi.

6.6. Chegirma

Chegirma qat'iy belgilangan narx o'rnatilgan tovar(x izmat)lar uchun qo'llaniladi. Ochiq holdagi chekda oxirgi qayd qilingan tovar(xizmat) narxiga foizli ustamani o'rnatish uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. **6.2** – mavzudagi tartiblarning 7 – bandigacha bo'lgan amallar bajariladi.
2. Tovar narxi teriladi.
3. «**JAMI**» orqali «**CHEGIRMA %**» satriga o'tiladi.
3. Chegirma foizi teriladi.
4. «**YAKUN**» bosiladi.
5. **6.2** – mavzudagi tartiblarning 9 – bandidan davom ettiriladi.

6.7. Soliqlarni qo'llagan holda sotuvni rasmiylashtirish

Mazkur jarayon QQS ni qo'llagan holda sotuv(xizmat)larni rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi.


Soliqlar stavkasi o'rnatilgan va bo'limga berkitilgan bo'lsa chekni rasmiylashtirish jarayonida soliq nomi, stavkasi, miqdori chekda avtomatik tarzda chop etiladi.

6.8. Chek yopilgunga qadar sotuvni bekor qilish

Mazkur jarayon chek yopilgunga qadar sotuv(xizmat)larni bekor qilish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagilarni bajaring:

1. Chek ochiq bo'lgan holda, ya'ni displeyda quyidagi oyna ko'ringanda:



2. «QT/BQ» tugmasini bosing. Displeyda “DIQQAT! SHAKLLANGAN RO'YXATNI BEKOR QILMOQCHIMISIZ” yozuvi paydo bo'ladi:
3. «QT/BQ» tugmasini bosing va shakllangan ro'yxat bekor etiladi.

Shakllangan ro'yxat tarkibidan tanlab olingan savdoni bekor qilish

6.2 mavzuning 8 – bandigacha kassa jarayonlari bajarilib, kerakli savdoni bekor qilish zaruriyati paydo bo'lsa, «JAMI» orqali ro'yxatdagi savdo tanlab olinib, «T» bosiladi.

6.9. Tovarni qaytarib olish

Mazkur jarayon qaytarilib olingan tovar(xizmat) bo'yicha NKM dan naqd pulni qaytarib berish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagilarni bajaring:

1. «OPERATOR» rejimini tanlang.
2. «QT/BQ» tugmasini bosing.
3. 6.2 – mavzuning 3 – bandidan boshlab amallar bajariladi.


6.10. To'lov karta bilan to'laganda chekni yopish

Mazkur jarayon tovar(xizmat)lar uchun to'lanadigan to'lovlarni naqdsiz, ya'ni plastik karta mablag'lari orqali to'lash uchun qo'llaniladi.

Buning uchun quyidagilarni bajaring:

1. 6.2. – mavzudagi 9 – bandgacha amallar bajariladi.

2. «**JAMI**» orqali «**KARTA**» tanlanadi. Displayda quyidagi oyna ko'rinadi:



3. «**YAKUN**» bosiladi.

6.11. Aralash usulda to'laganda chekni yopish

Mazkur jarayon tovar(xizmat)lar uchun to'lanadigan to'lovlarni naqdsiz hamda to'lov karta mablag'lari orqali to'lash uchun qo'llaniladi.

Buning uchun quyidagilarni bajaring:

1. **6.2.** – mavzudagi 9 – bandgacha amallar bajariladi.
2. **NAQD** pul bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari kiritiladi
3. To'lanishi lozim bo'lgan to'lov karta mablag'lari avtomatik ravishda displayda namoyon bo'ladi.
4. «**YAKUN**» bosiladi. Chek chop etiladi.

VII.«X HISOBOT» REJIMI

X hisobotlar – NKM ning joriy holati haqidagi hisobot deb tushuniladi. Ushbu hisobotni olish NKM ning pul registrlari holatida hech qanday o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi.

Ushbu hisobot smena davomida o'tkazilgan barcha kassa jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni o'chirishsiz hujjatlarda shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagilar bajariladi:

1. Displayda «**JAMI**» orqali «**X HISOBOT**» rejimini tanlang;
 2. «**YAKUN**»ni bosing.
 3. Parolni kiriting.
- Hisobot bosmaga chiqariladi.

VIII. «Z HISOBOT» REJIMI

Mazkur jarayon o'chirish bilan smenani yopish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagilar bajariladi:

1. Displayda «**JAMI**» orqali «**Z HISOBOT**» rejimini tanlang;
2. «**YAKUN**»ni bosing.
3. Parolni kiriting. Hisobot bosmaga chiqariladi.

IX. «SERVIS» REJIMI

9.1. Avtosinov

Mazkur rejim NKM ning qism hamda bloklarini avtomatik sinovdan o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Buning uchun quyidagilar bajariladi:

1. Displayda «**JAMI**» orqali «**SERVIS**» rejimini tanlang.
2. «**YAKUN**» ni bosing. Parolni kiriting.
2. «**JAMI**» orqali «**NKM SINOVI**» oynasini toping.
3. «**DASTUR**» ni bosing. Sinov jarayoni boshlanib, sinov natijasi bosmaga chiqariladi.

9.2 FM ni faollashtirish

Mazkur rejim NKM ni o'quv holatidan onlayn holatiga o'tkazishda qo'llaniladi.

Buning uchun quyidagilar bajariladi:

1. SAM karta NKM ning kerakli joyiga o'rnatiladi.
2. 9.1 – mavzuning 2- bandigacha ishlar bajariladi.
3. «**JAMI**» orqali «**FM ni faollashtirish**» ni tanlang.
4. «**YAKUN**» bosiladi.
5. STIR _____ oynasi ko'rinadi.
6. Kodlar jadvalidan foydalanib STIR ni kiriting.
7. «**YAKUN**» bosiladi.
8. Displayda «**TASDIQLANG**» ko'rinadi.
9. «**YAKUN**» bosiladi.
10. NKM onlayn rejimga o'tganligini tasdiqlovchi chek chop etiladi.

X. MASOFALI ALOQA OPERATORI

Mazkur rejim NKM ning fiskal ma'lumotlarini **ON-LINE** ko'rinishidagi aloqa portlari orqali fiskal ma'lumotlar serveriga yuborishni ulash yoki o'chirish uchun xizmat qiladi.

10.1 WI – FI

Mazkur ichki qurilma orqali NKM internet tarmog'iga ulanish uchun foydalaniladi. Buning uchun:

1. Displayda «**JAMI**» orqali «**MASOFALI ALOQA OPERATORI**» rejimini tanlang.
2. «**YAKUN**» ni bosing. Parolni kiriting.
3. Displayda **WI-FI** ko'ringanda «**DASTUR**» bosiladi.
4. Displayda **WI-FI OFF** ko'rinadi.
5. «**JAMI**» orqali **WI-FI ON** topiladi.
6. «**DASTUR**» bosiladi.
7. Displayda **WI-FI** zonalar nomi ko'rinadi
8. Kodlar jadvalidan foydalanib kerakli **WI-FI** zonasi nomi teriladi.
9. «**DASTUR**» bosiladi.
10. Displayning yuqori tomonida  belgisi ko'rinadi.

10.2 GPRS

Mazkur port orqali mobil aloqa tarmog'iga ulanish va internetdan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Buning uchun

1. Displayda **GPRS** ko'ringanda «**DASTUR**» bosiladi.
2. Displayda **GPRS OFF** ko'rinadi.
3. «**JAMI**» orqali **GPRS ON** topiladi.
4. NKM mobil aloqa tarmog'i orqali internetga ulanadi.
5. Displayning yuqorigi qismida  belgisi ko'rinadi

10.3 ELEKTRON POCHTA QUTISI

Mazkur pochta orqali foydalanuvchining electron pochta kassa jarayonlari to'g'risidagi Z hisobot ma'lumotlari yuboriladi

Buning uchun quyidagilar bajariladi:

1. Displayda **ELEKTRON POCHTA QUTISI** ko'ringanda «**DASTUR**» bosiladi.
2. Displayda **POCHTA MANZILI** ko'rinadi.
3. Kodlar jadvalidan foydalanib elektron manzil nomi kiritiladi.
4. «**DASTUR**» bosiladi.
5. Displayda «**IZOH**» ko'rinadi.
6. Zarur bo'lsa pochta qutisiga kodlar jadvalidan foydalanib tegishli ma'lumot yoziladi.
7. «**DASTUR**» bosiladi. Displayda **POCHTA OFF** ko'rinadi.
8. «**JAMI**» orqali **POCHTA ON** topiladi. «**DASTUR**» bosiladi.

32	!	"	#	\$	%	&	'	(	)	*	+	,	-	.
33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	
/	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	:	;	<	=
47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61
>	?	@	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76

M 77	N 78	O 79	P 80	Q 81	R 82	S 83	T 84	U 85	V 86	W 87	X 88	Y 89	Z 90	[91
\ 92	] 93	^ 94	_ 95	‘ 96	a 97	b 98	c 99	d 100	e 101	f 102	g 103	h 104	i 105	J 106
k 107	l 108	m 109	n 110	o 111	p 112	q 113	r 114	s 115	t 116	u 117	v 118	w 119	x 120	Y 121
z 122	A 161	Б 162	В 163	Г 164	Д 165	Е 166	Ё 167	Ж 168	З 169	И 170	Й 171	К 172	Л 173	М 174
Н 175	О 176	П 177	Р 178	С 179	Т 180	У 181	Ф 182	Х 183	Ц 184	Ч 185	Ш 186	Щ 187	Ъ 188	Ы 189
Ь 190	Э 191	Ю 192	Я 193	а 209	б 210	в 211	г 212	д 213	е 214	ё 215	ж 216	з 217	и 218	й 219
к 220	л 221	м 222	н 223	о 224	п 225	р 226	с 227	т 228	у 229	ф 230	х 231	ц 232	ч 233	ш 234
щ 236	ъ 237	ы 238	э 239	ю 240	я 241									

KODLAR JADVALI

ILOVA 1

ILOVA 2

Xatoliklar va ularning kodi

NKM displeyida aks etadigan	Displeyda aks etadigan xatolik nomi
-----------------------------------	-------------------------------------

xatolik raqami	
1	Tezkor xotirada nosozlik
2	Tezkor xotira to'lgan
3	Printer qizib ketgan
4	Chek qog'ozi yo'q
5	Printer ishchi qismi ko'tarilgan
6	Akkumulyator quvvati pasaygan
7	Soliq dasturlanmagan
8	Z hisobotni oling
9	Noto'g'ri jarayon
10	Tovar(xizmat) bazada mavjud emas
11	Tovar(xizmat) kodini kiritishda xatolik
12	Bo'lim yopiq
13	Bo'lim va jarayonlar bir – biriga mos emas
14	Qaytimni berishda pul yetarli emas
15	Bufer to'lgan
16	Cheklangan pul
17	Smena 24 soatdan oshgan. Smenani toping
18	Smenani yoping
19	Davr noto'g'ri tanlandi
20	Diqqat! Texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi
21	WI-FI aloqasi mavjud emas
22	Ma'lumot uzatilmadi
23	Fiskal xotirada nosozlik
24	Zavod raqami mavjud emas
25	Fiskal xotira moduli to'lgan
26	Bo'sh qaydlar mavjud emas
27	Sana o'rnatilmagan
28	Noto'g'ri sana
29	Ma'lumotlar oshib ketdi
30	Narxni kiriting
31	Qaydlar mavjud emas
32	Smena yopilgan
33	FM nosoz
34	FM to'lgan
35	Tarmoq da xatolik
36	NKM o'quv holatida
37	Iltimos! Internetga ulaning
38	Diqqat! Shakllangan ro'yxatni o'chirmoqchimisiz?
39	Yangi smenani ochmoqchimisiz?
40	Sonini kiriting

CHEK NAMUNALARI

ILOVA 3

1. O'QUV HOLATIDAGI SAVDO CHEKI

NKM Uzkass-185	

BL01	KOMPYUTER
1 dona * 1000000	=1000000
QQS	SIZ

- chekning boshi;
- tovarning nomi;
- tovar soni va narxi;

- soliqsiz savdo alomati

- jami pul miqdori
- yakuniy pul miqdori

- to'lov turining nomi, to'langan pul miqdori;

- chek raqami, sana va vaqt
- operator ismi, sharifi

- STIR ning mavjud emaslik alomati; -
- NKM ning zavod raqami;

- chekning oxiri.

2.

2. BIR DONA TOVAR SAVDO CHEKI

NKM Uzkass-185		

BL01	KOMPYUTER	
1 dona	* 1000000	= 1000000
QQS	15%	130414

- QQS stavkasi ba summasi

- fiskal belgi;
- fiskal modul seriya raqami
- soliq to'lovchining indentifikatsiya raqami;
- NKM ning zavod raqami;

3 . IKKITA VA UNDAN ORTIQ TOVAR SAVDO CHEKI

NKM Uzkass-185		

BL01	KOMPYUTER	
1 dona	* 10000000	= 1000000
QQS	15%	130414
BL01	PRINTER	

4. QAYTIMNI HISOBLASH

NKM Uzkass-185	
BL01 OLMA	
5 kg * 2000	= 10000
QQS 15%	1304
JAMI	10000

5. TOVARNI QAYTARISH CHEKI

QAYTARISH

NKM Uzkass-185

PL01 QUMA

6. TO'LOV KARTA BILAN SAVDO QILISH CHEKI

NKM Uzkass-185		

BL01	KOMPYUTER	
1 dona *	1000000	= 1000000
QQS 15%		130414

7. ARALASH USUL BILAN SAVDO QILISH

NKM Uzkass-185		

BL01	KOMPYUTER	
1 dona *	1000000	= 1000000
QQS 15%		130414

JAMI		1000000
SHU JAMI QQS 15%		130414

NKM Uzkass-185

4780014680219 Shaffof Вода
родниковая без газа

1 dona * 6000 = 6000

QQS 15% 950

IAMI 6000

HISOBOTLARDAN NAMUNALAR

ILOVA 4

1. SMENALI X HISOBOT

NKM Uzkass-185
SMENALI X HISOBOT

SMENA OCHILISH VAQTI:
20. 01:20 10:04

SAVDO(XIZMAT)

CHEKLAR	7
NAQD	2910000
TO'LOV KARTA	1606000
QQS	589022

QAYTARISH

CHEKLAR	1
NAQD	10000
TO'LOV KARTA	0
QQS	1304

SMENALAR SONI: 4

20.01.20 10:04 B. ADM

FM: UZ190515001408

STIR: 000123456789

NKM Z/R: 00000001

2.SMENALI Z HISOBOT

NKM Uzkass-185

**SMENALI
Z HISOBOT**

SMENA OCHILISH VAQTI:

20.01.20 10:04

SMENA YOPILISH VAQTI:

20.01.20 18:01

SAVDO(XIZMAT)

CHEKLAR	7
NAQD	2910000
TO'LOV KARTA	1606000
QQS	589072

QAYTARISH

CHEKLAR	1
NAQD	10000
TO'LOV KARTA	0
QQS	1304

SMENALAR SONI 4

20.01.20 18:01 B. ADM.

FM: UZ190515001408

STIR: 000123456789

NKM Z/R: 00000001

10. AVTOTEST HISOBOTI

TEXNOLOGIK SINOV

20.01.20 19:55

FM UZ190515001408

